

QO‘QON XONLIGI TARIXNAVISLIGIDA MULLA SHAMSIDDIN SHAVQIYNING O‘RNI

Xolmirzayev Xayrullo Lutfillojon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Arxeologiya kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: xayrulloxolmirzayev9@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi davri tarixnavisligi bo‘yicha ko‘zga ko‘ringan olimlardan biri Shavqiy Namangoniy haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek uning hayoti va faoliyati, qoldirgan ilmiy merosi tahlil etilgan hamda Shavqiy asarlarining ahamiyati va tariximizni o‘rganishdagi o‘rni masalalarini muhokamaga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Kalvak, Shavqiy, Qo‘qon, Devoni Shavqiy, Qo‘qon xonligi, Jome‘ ul-havodis, tarixnavislik.

THE PLACE OF MULLA SHAMSIDDIN SHAVQI IN THE HISTORIOLOGY OF THE KOKAN KHANITY

ABSTRACT

This article provides information about Shavqiy Namangani, one of the prominent scholars of the historiography of the Kokan Khanate period. Also, his life and work, his scientific legacy were analyzed, and the importance of Shavqiy’s works and their place in the study of our history were discussed.

Key words: Kalvak, Shavqiy, Kokan, Devoni Shavqiy, Khanate of Kokan, Jome‘ ul-havodis, historiography.

KIRISH

Tarix fanida yozma manbalarning o‘rni nihoyatda beqiyosdir. Yozuvning paydo bo‘lishi bilan insoniyat misli ko‘rilmagan darajadagi katta axborotlarni ixcham tarzda kelgusi avlodlarga uzatish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu borada tariYurtimiz tarixini o‘rganar ekanmiz uning naqadar boy va sharafligiga guvoh bo‘lamiz. Ko‘pchilik tarixchilar turg‘unlik davri yoki boshqa izohlar bilan atovchi so‘ngi o‘rta asrlar davri tarixshunosligi ancha yaxshi o‘rganilgan bo‘lsa ham haligacha o‘rganilishi kerak bo‘lgan ma‘lumotlar yetarlicha. Xususan Qo‘qon xonligi va uning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi ham hali to‘liq ochib berilmagan. Shuning uchun ham bu davrni o‘rganish haligacha o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Mavzuni o‘rganish uchun esa albatta ushbu davrda yozilgan tarixiy asarlarni tadqiq etish muhim

hisoblanadi. Qo‘qon tarixnavislik maktabiga mansub asarlar she‘riy yoki qisman she‘riy yo‘lda yozilganligi bilan ajralib turadi. Bunday asarlar qo‘qonlik tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilganliklaridan dalolat beradi. Shunday tarixchi olimlardan biri arab, fors, o‘zbek tillarini mukammal bilgan tarixchi va shoir Mulla Shamsiddin Shavqiydir. Uning asarlari o‘zining realistlik g‘oyalari va saroy shoirlariga nisbatan hayotni aniqroq yoritganligi bilan ajralib turadi, bu esa tarixchilarga davr tarixini o‘rganishda kata yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mulla Shamsiddin Shavqiy asarlariga qiziqishning yuqoriligini uning asarlarini XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Farg‘ona vodiysida tuzilgan majmua va to‘plamlarning aksariyat qismida kiritilganligi uning naqadar mashhur bo‘lganligidan dalolat beradi. Olimning hayot yo‘li va ijodini o‘rganish jarayonida bunga yana bir bora amin bo‘lish mumkin. Mulla Shamsiddin Shavqiy va uning asarlarini Is‘hoqxo‘ja Ibrat, V. P. Nalivkin, Charlz Ambrouz Stori, Zaki Validiy To‘g‘on, G‘. Karimov, F. Ahmadjonova, A. Xalilbekov, R. Nabiev, Sh. Vohidov, H. Bobobekov, B. Bobojonov, O. Nosirov, Abdulahatov N., Qo‘ldoshev Sh., Jo‘raboyeva S. kabi olimlar o‘z asarlari va maqolalarida keltirib o‘tishgan. 2021-yilga kelib Nodirjon Abdulahatov va Sherali Qo‘ldoshevlar muallifligida Mulla Shamsiddin Shavqiy deb nomlangan kitob chop etildi. Ushbu kitobda olimning hayot yo‘li va ijodi batafsil bayon etildi.

NATIJALAR

Mulla Shamsiddin Shavqiy Qo‘qon xonligi hamda mustamlaka davrida yashab ijod qildi. Keng qamrovli ijodiy faoliyati bilan bu ikki davr o‘zbek adabiyotini bir-biriga bog‘ladi. 1840-1842, 1845-1858, 1868-1876- yillarda Qo‘qon xonlaridan Muhammad Alixon (1806-1842, hukmronlik davri 1822-1842) va Xudoyorxon (1830-1881, hukmronlik davri 1844-1858, 1862-1863, 1865-1875) saroyida xizmat qilgan davrida Qo‘qon xonligi adabiy muhitiga anchagina yaqin va aloqador bo‘lganligi uning asarlarini tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi (Qo‘ldoshev, 2016, B. 17).

MUHOKAMA

Mulla Shamsiddin Mulla Husayn o‘g‘li Shavqiy 1804/5- yilda Namangan shahriga yaqin bo‘lgan, hozirgi To‘raqo‘rg‘on tumaniga qarashli Kalvak qishlog‘ida bo‘zchi-kosib oilasida tug‘ilgan.

Mulla Shamsiddin o‘z qishlog‘idagi boshlang‘ich maktabda ta‘lim olgach, Shahand qishlog‘idagi madrasaga o‘qishga kiradi. Bu yerda arab va fors tillarini mukammal o‘rganadi. Navoiy, Jomiy, Hofiz, Fuzuliy, Bedil va boshqa Sharq mumtoz shoirlarining asarlarini chuqur mutolaa qiladi. Shu madrasadagi ta‘limi davomida uning ijodi shakllana boradi. Shoir o‘ziga kuchli orzu, zo‘r havas, astoydil intilish, istak hamda o‘rtanish ma‘nolaridagi shavq so‘zini taxallus qilib oladi.

U madrasani tamomlagach, o'z qishlog'i Kalvakka qaytadi. Bu vaqtda Shavqiyning otasi Mulla Husayn vafot etgandi. To'ng'ich farzand bo'lgani uchun oila boshqarish Shavqiy bo'yniga tushadi. Ammo u bir necha vaqtgacha ish topolmay yuradi, nihoyat, o'z uyida bo'z to'qiydigan do'kon ochadi va bo'zchilik kasbi bilan shug'ullanadi. Shu orada Ma'dalixon Shavqiyning puxta bilimga ega ekanligidan xabar topib, unga Asaka qishlog'i yaqinida joylashgan Qulla qishlog'idagi qozining mirzasi vazifasini bajarishni taklif qiladi. Shavqiy bu yerda bir necha vaqt mirzalik ishini olib boradi. Lekin uning moddiy hayoti yaxshilanmaydi. Qullada ham u ko'proq ijodiy ish bilan shug'ullanadi. Qo'qon xonligida taxt uchun olib borilgan qirg'in urushlar shoirning Qulladan ketishiga sabab bo'ladi. U yana o'z qishlog'i Kalvakka qaytadi. Shamsiddin Shavqiy otasi Mulla Husayndan so'ng Mulla Qurbon Boqiyning farzandi ya'ni Ot chopar nomi bilan mashhur bo'lgan Mulla Mir Sayyid eshonning muridlaridan biriga aylanadi. Shavqiy 1840- yilda poytaxt Qo'qonga boradi. Uning Qo'qonga xon saroyiga borishi bilan bog'liq bir necha taxminlar mavjud. Birinchisi otasi Mulla Husayn tufayli. Ikkinchi taxminga ko'ra shoir Uvaysiyning kalvaklik kotibasi Qutulug' (Ulug' ena) yordamida u xon saroyidagi devonxonaga munshiy sifatida qabul qilingan (Abdulahatov, Qo'ldoshev, 2021, B. 4). Ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon shahrida uyushtirilgan mushoiralarda Shavqiy uch marta g'olib bo'ladi va ko'pchilikning nazariga tushadi. Uning Qo'qondagi dastlabki faoliyati Buxoro amiri Nasrullaxonni 1842- yildagi qonli yurishi vaqtida nihoyasiga yetgan. Bu dahshatli voqealardan keyin Shavqiy Qo'qonni tark etadi. Qishlog'iga qaytib, hunarmandlik bilan tirikchilik o'tkazadi.

1845- yilda Qo'qon taxtiga Xudoyorxon ko'tarilgach, Shavqiy Qo'qonga borib, xonlik devonida xizmatda bo'ladi. 1858- yilda Mallaxon taxtni egallagandan keyin, shoir yana o'z qishlog'iga keladi. Bu yerda maktabdorlik bilan shug'ullanadi. Oradan to'rt yil o'tib, Xudoyorxon taxtni yana qaytarib olgach, Shavqiy ham saroy xizmatiga qaytadi. Qo'qonda shoir 14 yil turadi.

Rus mustamlakachilari Farg'ona vodiysini egallab, Qo'qon xonligini tugatganlaridan so'ng Shavqiy qishlog'iga kelib, bo'zchilik, dehqonchilik va maktabdorlikni davom ettiradi.

Shoir va tarixchi Shamsiddin Shavqiy 1887- yilda vafot etgan. Uning vafotiga doir ma'lumotlar dastlab Odiljon Nosirovning "Shavqiy Namangoniyni yangi qo'lyozmasi" nomli maqolasida qayd etilgan: "G'. Karimovning ilmiy ishida shoirning To'raqo'rg'on yaqinidagi Kalvak qishlog'idan ekani to'g'ri ko'rsatilsa-da, uning tug'ilgan, o'lgan yillari haqida aniq ma'lumot keltirilmagan. Shavqiy qabri Kalvak qishlog'ida. Ma'lumotlarga ko'ra Shavqiy dafn etilgan qabr yoniga ziyoratchilar uchun chillaxona ham bunyod etilgan. Biroq sobiq sovetlar davrida chillaxona buzilib qabr bir do'nglik ko'rinishiga kelib qolgan. Sovet davrida "Ruhoniylar oilasi" deb nom

olgan Shavqiy xonadoni vakillari ham boshqa diniy ulamolar oilalari kabi doimiy tazyiqlar ostida bo'lishgani tufayli qabrni avvalgi holatini tiklay olmaganlar.

Mulla Shamsiddin Shavqiyning (1805-1889) g'azallari, masammatlari, masnaviyatlari va "Jome' ul-havodis" dostonidan iborat devoni XIX asrning 90- yillarida ko'chirib kitob holatiga keltirilgan. 1908 va 1912- yillarda nashr etilgan "Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin" asarida bir qancha she'rlari kiritilgan. Shavqiy she'rlari boshqa qo'lyozma va toshbosma asarlarda ham uchraydi. Mulla Shamsiddin Shavqiy zamonasining yetuk ziyolilari hisoblangan Is'hoqxo'ja Ibrat (1862-1937), So'fizoda (1869-1937), Nodim Namangoniy (1844-1910) kabi shoirlar hamda Rossiyadan kelgan rus olimlaridan V. P. Nalivkin (1852-1918) bilan yaqin munosabatda bo'lgan. V. P. Nalivkin o'zining "Qo'qon xonligini qisqacha tarixi" nomli mashhur asarini yozishda Shavqiyning ikki asaridan foydalanganligini ta'kidlaydi:

Birinchisi: "Shohnoma" dostoni, Qo'qon xonligi tarixini Xudoyorxonni taxtga chiqishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi 1292 (1875). Farg'ona viloyati Chust uezdining Kalvak qishlog'idagi istiqomat qiluvchi Mulla Shavqiy taxallusi bilan ijod qilgan Mulla Shamsning asaridir. Doston turk tilida Xudoyorxonning buyrug'iga binoan yozma manbalar asosida yozilgan.

Ikkinchisi: "Jangnoma" dostoni, Sheralixon va Xudoyorxon davrida yuz bergan qipchoqlar qo'zg'olonlari tarixiga bag'ishlangan. 1269 (1852). Rus sharqshunosi V. P. Nalivkinda Mulla Shams Shavqiyning asarlari shu qadar katta ta'surot qoldirganki, u o'z asarida "Shohnoma" dostonidan parchalar keltirib o'tgan:

Alar ketdi tashlab dil abgor bo'lib,

Qolib bu o'g'ul giryada zor bo'lub. (НАЛИВКИН, 1886, С. 49)

Shuningdek, Mulla Shamsiddin Shavqiy to'g'risidagi dastlabki ma'lumotni ham V. P. Nalivkin berib o'tgan. U shoirni o'z davrining peshqadam olimi deb takidlaydi. Farg'ona tarixini o'rganishda undan yordam olganligini aytadi. Nalivkin Shavqiyning "Jome' ul-havodis" asarini o'rganib, 80- yillarning boshlarida undan o'ziga nusxa ko'chirtirib olgan.

Namangan uezdi mahkamasida xizmat qilgan, keyin bir necha yil Nanay qishlog'ida yashab, o'lka xalqlari tarixi, tili, etnografiyasini o'rganish bilan shug'ullangan sharqshunos V. P. Nalivkin XIX asrning 80- yillari boshida Shavqiyning "Jome' ul-havodis" asari bilan tanishib chiqqan, bu haqda o'zining asarlarida qisqacha ma'lumot berib o'tgan. Dostonning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo'l yozma nusxasida uning quyidagi izohi mavjud:

Qo'lyomaning asl nusxasi XIX asrning 80- yillarida qozonlik sharqshunos olim, professor I. F. Gotvald (1813-1897) tomonidan harid qilingan. Biroq hozirda ushbu qo'lyozmaning taqdiri noma'lum. V. P. Nalivkin buyurtmasi asosida ko'chirilgan nusxa hozirda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari institutining

fondida 1756-raqam ostida saqlanadi. Asarning yana ikkita nusxasi mavjud bo'lib, biri mazkur markazning asosiy fondida "Jangnomayi Xudoyorxoniy" ("Xudoyorxon jangnomasi") nomi bilan 599- raqam ostida, boshqa nusxasi esa Markazning H. Sulaymonov nomidagi fondida ديوان شوقى "Devoni Shavqiy" nomi bilan 1872- raqam ostida saqlanadi.

Mulla Shams Shavqiy g'azallari mavzu va shakl jihatdan rang-barang. Shoir ijodida oshiqona, orifona, hamd-u na't g'azallar, axloqiy-ta'limiy g'azallar juda ko'p uchraydi. Uning g'azallarida o'nlab she'riy san'atlar qo'llangan, shoir ma'shuqaning ta'rif-tavsifini keltirish orqali o'zining ruhiyatidagi mahzunlikni takrorlanmas tashbehlar, mubolag'alar, husni ta'lil san'atini qo'llash bilan g'azallaridagi badiiylikni ta'minlagan (Jo'raboyeva, 2022, B. 211).

Tarixchi olim Sh. Vohidov tadqiqotida "Jome' al-havodis" asari Shavqiy devoni tarkibidagi alohida doston sifatida keltirilgan. Ammo bu dostonning "Jangnomayi Xudoyorxoniy" dostoni bilan bitta asar ekanligi qayd etilmagan. Ushbu tarixiy dostonning badiiy jihatlari G'. Karimov, F. Ahmadjonova, A. Xalilbekovlar tomonidan o'rganilgan. Dostondagi ma'lumotlardan R. Nabiev, Sh. Vohidov, H. Bobobekov, B. Bobojonov kabi olimlar ham o'z tadqiqotlarida foydalanishgan.

1963- yilda professor G'. Karimovning "Shavqiy poeziyasining realistik kuchi" ("Sharq yulduzi", 2- son), 1970- yilda F. Ahmadjonovanning "Shavqiy Namangoniy" ("O'zbek tili va adabiyoti", 4- son) maqolalari e'lon qilingan. Gafur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida 1982- yilda chop etilgan "Asrlar nidosi" majmuasida Shavqiy Namangoniy haqida ma'lumot, uning ikki g'azali, bir mustazodi, "Pandnoma" asarining qisqartirilgan nusxasi, "Jome' ul-havodis" dostonidan parcha berilgan. G'. Karimov yozgan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi (uchinchi kitob)dan (1975, 1987) Shavqiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar joy olgan.

Shavqiy Namangoniy zamonasining bilimdon ziyolisi va yetuk shoiri hisoblanadi. Bu yetuklik shoir yaratgan g'azallar, mustazod, masammatlar va masnaviylarda, Navoiy, Hofiz, Fuzuliy, Bedil kabi buyuk shoirlar g'azallariga u bog'lagan muxammaslarida, "Jome' ul-havodis", "Pandnoma", "Tarixi Ho'qand" ("Qo'qon voqeasi tarixi") asarlarida aniq-ravshan ko'rinadi.

Shavqiyning tarixiy asarlari mashhur ingliz sharqshunosi Charlz Ambrouz Storining (1888-1967) 1935- yilda Angliyada chop etilgan "Fors adabiyoti" nomli bibliografik asarida ham qayd etilgan. Charlz Stori Shavqiyning yana bir asari haqida ma'lumot beradi. "Tarixi Shavqiy" asari hijriy 1291, milodiy 1874-75- yili yozilgan bo'lib, Farg'ona hududining ruslar tomonidan bosib olinishi voqealariga bag'ishlangan. Bu asarning aynan shu Ch. Stori tavsiflagan qo'lyozma nusxasi jahonga ma'lum va mashhur boshqird sharqshunosi Zaki Validiy To'g'on (1890-1970) qo'lida bo'lgan.

1915- yilda Petrogradda chop etilgan “Farg‘ona viloyatidagi sharq qo‘lyozmalari” nomli maqolasida Zaki Validiy To‘g‘on “Tarixi Shavqiy” asariga izoh berar ekan Shavqiyni Chor Rusiyasi bosqinchilariga nafrat bilan qaraganligini bayon etadi¹ (Кулдашев, 2022, С. 45).

XULOSA

Mulla Shamsiddin Shavqiy Namangoniyning nafis lirik she‘rlari, realistik asosdagi epik asarlari adabiyotimiz tarixida zalvorli qiymat va mavqega ega. Mazkur asarlar shoirning xalq uchun, adabiyotimiz tarixi va taraqqiyoti uchun qilgan katta xizmatlaridir. Ishq-muhabbat, mehr-u vafo, mahbuba go‘zalligi va fazilatlari, hijron dardi, turli kechinma va armonlar, insoniy his-tuyg‘ular shoir g‘azallarida ehtiros bilan kuylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Абдулахатов Н., Кўлдошев Ш. (2021) Мулла Шамсиддин Шавқий. – Toshkent. 320 б.
2. Qo‘ldoshev Sh. (2016) Qo‘qon xonligi tarixi ilmiy manbalarda. – T.: Akademnashr.
3. Jo‘raboyeva S. (2022) Shavqiy g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy mazmuni xususida // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. №8.
4. Кулдашев Ш. (2022) «Тарих-и Шавки» - важное произведение о Коканском ханстве // Научно-методический журнал “Вестник ОшГПУ имени А. Мырсабекова”. - №2 (20). 2022. В-73
5. Yosin, A. O. (2023). CHANGES IN THE ETHNO-CULTURAL IDENTITY OF DUNGANS OF UZBEKISTAN (IN THE EXAMPLE OF THE DUNGAN LANGUAGE). Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 144-151.
6. Ortikov, Y. A. (2023) National Language as a Factor of Ethno-Cultural Identity in the Dungans of Uzbekistan.

¹ Кулдашев Ш. «ТАРИХ-И ШАВКИ» — ВАЖНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ О КОКАНСКОМ ХАНСТВЕ. Научно-методический журнал “Вестник ОшГПУ имени А. Мырсабекова”. 2022 г. №2 (20) –С-45